

XVII-XVIII ASRLARDA USMONIYLAR DAVLATI MAHKAMALARI

**Musayeva Yulduz**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2-kurs magistranti

Tel: +998902967399

E-pochta: yulduzabdurazzoqova@icloud.com

**Annotatsiya** Bu maqola Usmoniylar davlati mahkamalarining XVII-XVIII asrlardagi faoliyatini, vazifalarini, mahkamalarda kimlar ishtirok etganligini va shuningdek, da'vo qaydlari qay tarzda yuritilganligi haqida ma'lumotlar beradi. Da'vo qaydlari- "shariya sijillari" deb nomlangan. Usmoniylar davlatida shariy va an'anaviy huquq uyg'unlashgan bo'lsa-da, mahkamalarda asosan shariy hukmlarga tayangan holda qaror chiqarilgan. Mahkamalar qozilar tomonidan boshqarilgan.

**Kalit so'zlar:** Mahkama, "Majlis-i shar", "Mahfil-i shar", shariy huquq, an'anaviy huquq, qozilar, "shariya sijillari".

Olti asr davomida hukmronlik qilgan Usmoniylar davlatining uzoq umr ko'rishiga asos bo'lgan eng muhim omil uning huquq tizimi deb aytish mumkin. Usmoniylar davlati musulmon-turk davlati bo'lganligi uchun o'zidan oldin barpo etilgan musulmon turk davlatlaridan o'rnak olgan va bu davlatlarning merosi asosida shakllangan. Shu sababdan davlatning huquqiy tizimi musulmon-turk davlatlari an'analari-siz rivojlanmagan. Usmoniylar tayyor huquqiy tizim asosida tashkil etilgan bo'lsa ham, ushbu merosni zaruratga qarab rivojlantirib, o'zining ijtimoiy tuzilishiga moslashtirgan<sup>27</sup>. Usmoniylar davlati Hanafiy mazhabini qabul qilganligi sababli huquqiy qonun-qoidalar Hanafiy fiqhiga ko'ra amalga oshirilgan.

Klassik davr ya'ni Tanzimat davriga qadar Usmoniylar mahkamalarida o'zgarishlar deyarli bo'lmagan. Usmoniylar davlati mahkamalarini o'zidan oldingi Turk-Islom davlatlari huquqiy an'alarini davr sharoitiga moslashtirib olgan namuna deb hisoblash mumkin. Mahkamalarni odatda "Majlis-i shar", "Mahfil-i shar" deb atashgan. Bu mahkamalar Tanzimat davrigacha asosan birgina qozidan iborat bo'lgan. Lekin istisnolar ham bo'lib, masalan, davlatning asosiy organlaridan biri bo'lgan, adliy vazifalarni ham bajargan Devon-i Humoyunda ba'zan qozidan tashqari qoziaskar ham faoliyat yuritgan. Qoziaskarlar asosan sud ishlarida kuzatuvchi maqomida xizmat qilgan. Da'vo ishlari ko'payib ketsa, qoziaskarlarga ham sudyalik qilishiga

<sup>27</sup> Aydın, Y. (2013). "Osmanlı Devleti'nde Hukuk Devletinin Gelişim Süreci", *Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi*, C. 6 s. 24.

ruxsat berilgan<sup>28</sup>. XIX asr o'rtalariga qadar Usmoniylar davlatida mahkama binosi bo'lmagan. Mahkamalar asosan masjid yaqinida<sup>29</sup> yoki qozilarning uyida bo'lgan<sup>30</sup>.

Usmoniylar huquq tizimi sha'riy va an'anaviy huquqni o'z ichiga oladi. Sha'riy huquq asosi Qur'on va Sunnat bo'lgan Islom huquqiga asoslangan huquq bo'lsa, an'anaviy huquq esa hukmdor tomonidan chiqarilgan farmon va farmoyishlardan iborat qonun huquqdir. Shunday bo'lsa-da, an'anaviy huquq sha'riy huquqqa zid emas. An'anaviy huquq podshoh tomonidan tuzilgan qonunnomalarga asoslangan. Ilk bor an'anaviy huquq ta'birini Fotih Sulton Mehmed davri tarixchilaridan Tursun bey qo'llagan<sup>31</sup>. Usmoniylar huquqining taqriban 20% ini asosi farmon va qonunnomalardan tashkil topgan an'anaviy huquq, 80% ini esa sha'riy huquq tamoyillari tashkil etgan<sup>32</sup>.

Usmoniylar mahkamalari mohiyatan ikki mintaqaga, Anadolu va Rumeliyaga bo'lingan edi. Anadoludagi qozilar Anadolu Qoziaskarligi, Rumeliya, Qrim va Shimoliy Afrikadagi qozilar esa Rumeliya Qoziaskarligi tarkibida viloyat, sanjoq va tuman qoziliklari sifatida tashkil etilgan edi. Bu ikki hududlardan birida o'z faoliyatini boshlagan qozilar o'sha hudud miqiyosida ko'chirilishi va lavozimi ko'tarilishi mumkin edi.

Shariat mahkamalari (majlis-i shar) Usmonlilar saltanatining tuzilishidan Tanzimat davrigacha bo'lgan davr davomida barcha turdagi huquqiy nizolar hal qilinadigan hokimiyat bo'lib kelgan. Bu yerda qozi va uning yordamchilari faoliyat yuritib, ularning soni mahkama joylashgan joyning kattaligiga qarab o'zgarib turgan. Islom huquqida bir guruh qozilardan iborat mahkamalar nazariy jihatdan mumkin bo'lib va amaliyotda bunday mahkamalar kamdan-kam bo'lsa-da, amalda odatda bitta qozili mahkamalar shaklida bo'lgan. Biroq, qozilarning ilmiy qarashlaridan bahramand bo'lgan muftiylar va mahkamalardagi sud jarayonlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etadigan shuhud yoki shuhudul-hal deb ataladigan amaldorlar birgina qozidan iborat bo'lgan islomiy adliya tashkilotiga o'ziga xos ahamiyat qozondirgan<sup>33</sup>. Ya'ni mahkamalarda qozilardan tashqari boshqa amaldorlar ham faol ishtirok etishgan.

Mahkama qarorlari shariya sijllari deb nomlangan daftarlarga yozib olinib, tomonlarga bu bilan bog'liq bir hujjat berilgan. Sijil daftariga nafaqat

<sup>28</sup> M.Akif Aydin, Osmanlı devletinde mahkeme, İslam ansiklopedisi, C.27, s.342.

<sup>29</sup> M.Akdağ, Türkiye'nin iktisadi ve İçtimai tarihi, C.II, AÜ-DTCF. No:131, Ankara 1971 s.76.

<sup>30</sup> İ. Ortaylı, Hukuk ve idare adamı olarak Osmanlı devletinde Kadı, Kronik kitap yayınları, İstanbul 2020. s.68.

<sup>31</sup> E.Ekinci, Osmanlı Hukuku Adalet ve Mülk, Arı Sanat Yayınevi, 1.Basım: Kasım-İstanbul, 2008, s.164.

<sup>32</sup> E.Ekinci, Osmanlı Hukuku Adalet ve Mülk, Arı Sanat Yayınevi, 1.Basım: Kasım-İstanbul, 2008, s.163.

<sup>33</sup> M.Aydin, Türk Hukuk Tarihi, Beta Basım, 14.basım, İstanbul, 2017, s.77.

huquqiy nizolar va qarorlar, balki mahkamada chiqarilgan turli hujjatlar hamda markazdan kelayotgan farmon va farmoyishlarning nusxalari ham qayd etilgan. Bu qaydlar mahkamada xizmat qilayotgan qozilar uchun muhim ma'lumot va asosli manba bo'lgan. Shu sababli, qozilar xizmat faoliyati davomida sijil daftarlarini yonlarida olib yurmagan, balki ularni o'z joylarida qoldirgan<sup>34</sup>.

Mahkamalarda islom huquqi va unga muvofiq chiqarilgan qonunlar qo'llanilgan. Usmoniylar davlati qozilari, Mulla Husravning "Durer" nomli asarini, keyinchalik, Halabiyning "Multeka" nomli asarini mahkamalarda asos qilib olganlar. Hanafiy mazhabining sahih qarashlari asosida yozilgan "Multeka" Sulton Ibrohim davrida "Mavkufat" nomi bilan turkchaga tarjima qilingan, so'ng sulton farmoni bilan mahkamalarda rasmiy kod (qonun) sifatida e'lon qilingan<sup>35</sup>.

Rasmiy va maxsus qonunlar to'plami va poytaxtdan yuborilgan alohida qarorlar va farmoyishlar ham qozilarga o'zlarining an'anaviy huquq amaliyotlarida yordam beradigan asosiy manbalar sifatida xizmat qilgan. Shariy va an'anaviy huquqning ayni mahkama tomonidan qo'llanilishi, bu ikki huquq tizimining uyg'un birligini ta'minlabgina qolmay, balki mahkama hayotida ishonch va barqarorlikni yuzaga keltirgan. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, Usmoniylar boshqaruvi shariy va an'anaviy qoidalarini yonma-yon uyg'un holda qo'llashda boshqa islom davlatlariga qaraganda muvaffaqiyat qozongan.

Ammo ba'zan mahkamalarning ayrim turdagi jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rishiga to'sqinlik qilingan. Masalan, merosga oid ba'zi davolarda mahalliy mahkamalar emas, balki Devon-i Humoyun vakolatga ega bo'lgan. Chet elliklarga kapitulyatsiyalar orqali berilgan imtiyozlar tufayli, Usmoniylar davlatida yashagan chet elliklarning o'zlari o'rtasidagi davolar Usmoniylar mahkamalari tomonidan emas, balki o'zlarining konsullik mahkamalari tomonidan ko'rib chiqilgan. Musulmon bo'lmagan ruhoniylarga oid jinoyat ishlarida mahalliy mahkamalar emas, Devon-i Humoyun vakolatga ega edi. Ruhoniylardan tashqari musulmon bo'lmaganlarning jinoiy ishlari shariat mahkamalari tomonidan ko'rib chiqilar edi. Musulmon bo'lmaganlar o'rtasidagi fuqarolik ishlariga kelsak, bunday ishlar bo'yicha vakolat jamoat mahkamalariga qoldirilgan<sup>36</sup>.

<sup>34</sup> M. Akif Aydın, Osmanlı Devleti'nde Mahkeme İslam Ansiklopedisi, C.27, s. 344.

<sup>35</sup> E.Ekinci, Osmanlı Hukuku Adalet ve Mülk, Arı Sanat Yayınevi, 1.Basım: Kasım-İstanbul, 2008, s.375

<sup>36</sup> A.Yetkin, Osmanlı Devleti'nde Hukuk Devletinin Gelişim Süreci, Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, Cilt: 6 Sayı: 24, 2013, s. 390.

Usmoniyalar davlatida shariya mahkamalaridan tashqari Devon-i Humoyun, Juma devoni, Qoziaskar devoni, Jamoat devoni, Juma devoni, Chorshanba devoni kabi mahkamalar faoliyat ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, Usmoniyalar davlati mahkamalari faoliyatida shariya mahkamalari muhim ahamiyat kasb etgan. Tanzimat davrigacha deyarli barcha jinoiy va ma'muriy masalalar shariya mahkamalarida ko'rilgan. Yana shuni aytish joizki, Usmonlilar davlati tashkil topganidan buyon ish yuritishga katta ahamiyat bergan. Biz buni shariya mahkamalari misolida ko'rishimiz mumkin. Chunki "shariya sijllari" ya'ni mahkama qayd daftarlari nafaqat qabul qilingan qarorlar, balki mahkamaga keltirilgan dalillar, markaz yoki quyi muassasalardan olingan hujjatlar ham saqlangan. Ushbu daftarlarning bir nusxasi mahkama joylashgan hududda saqlanishi, qolgan nusxasining esa markazga yuborilishi Usmoniyalar davlatining rasmiy ro'yxatga olish tartib-qoidalariga alohida ahamiyat berganligidan dalolatdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Yetkin, Osmanlı Devleti'nde Hukuk Devletinin Gelişim Süreci, Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, Cilt: 6 Sayı: 24, 2013.
2. M. Akif Aydın, Osmanlı Devleti'nde Mahkeme İslam Ansiklopedisi, C.27.
3. E.Ekinci, Osmanlı Hukuku Adalet ve Mülk, Arı Sanat Yayınevi, 1.Basım: Kasım-İstanbul, 2008.
4. M.Aydın, Türk Hukuk Tarihi, Beta Basım, 14.basım, İstanbul, 2017.
5. İ. Ortaylı, Hukuk ve idare adamı olarak Osmanlı devletinde Kadı, Kronik kitap yayınları, İstanbul 2020.
6. M.Akdağ, Türkiye'nin iktisadi ve İçtimai tarihi,C.II, AÜ-DTCF. No:131,Ankara 1971.
7. Aydın, Y. (2013). "Osmanlı Devleti'nde Hukuk Devletinin Gelişim Süreci", Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, C.6.